

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI VA OILA HAMKORLIGI

ANDIJON DAVLAT PEDOGOGIKA INSTITUTI
MAKTABGACHA TA'LIM FAKULTETI
MAKTABGACHA TA'LIM NAZARIYASI O'QITUVCHISI
ZULFIYAXON SARIQBOYEVA VA
102-GURUH TALABASI
UMIRZOQOVA BAXTIGUL IKROMJON QIZI

ANNOTATSIYA: USHBU MAQOLADA MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI VA OILA HAMKORLIGI ,OILADA TARBIYANING O'RNI ,TARBIYACHINING OTA-ONALAR BILAN SHAXSIY SUHBATLARI HAQIDA SO'Z BORADI.

KALIT SO'ZLAR: OILA , JAMIYAT, TA'LIM - TARBIYA , MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI , OILA IJTIMOY MUHIT, TARBIYACHI .

Shaxs shakllanishida oilaning ro'li katta hisoblanadi. Aqlan yetuk ,axloqan pok , jismonan baquvvat farzandlar na'munali oilalarda kamol topadilar. Shuning uchun ham oilada sog'lom muhitni vujudga keltirish va uni mustahkamlash umumdavlat ahamiyatga ega masaladir . Chunki ijtimoiy hayotda yuz beradigan barcha o'zgarishlar ,ya'ni undagi yetuk va kamchiliklar , murakkabliklar va ziddiyatlar oilada oz aksini topadi. Shunga kora oil avay oilaviy tarbiya masalalari har doim dolzarb muammo bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Bolaga oilada yaxshi tarbiya berish bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlaboq , ota -onalar uchun ham qarz, ham farzdir , oila bolaga tasir ko'rsatadi, uni atrofdagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishigina bo'lib qolmasdan , balki ularning ijtimoiy burchidir.shaxsning qadryati uning jamiyatdagi tutgan o'rni bilan belgilanib , ko'p jihatdan uning tarbiyasiga bog'liq bo'ladi .sgu sababli ota-ona o'z bolasining tarbiyachisi hisoblanadi. Oilaviy tarbiyaning muhim roli nutq hisoblanadi, shuning uchun otaona o'z nutqida yoqimsiz ohang bilan, mantiqsiz va qaytariq so'zlarini ishlatish va qo'llash bilan farzandlarni ranjitishlik, ularda ishonch hissini so'ndiradigan, hazilmutoyiba, samimiy bo'lmagan fikr va mulohazalardan saqlanish kerak. Odatda,oilada ota-ona nazokatli bo'lgandagina haqiqiy obro'-'e'tiborga erishadi. Bundan tashqari, oilada ota-ona o'rnak bo'lmog'i uchun ishonch har tomonlama rivojlangan bo'lishi, shuningdek, aqliy, axloqiy estetik jihatdan muayyan cho'qqiga erishgan bo'lishi darkor. Bularning barchasi ota onadan aql-zakovatli, milliy udum va urf-odatlarni mukammal egallagan shaxs bo'lishni talab qiladi. Ota-onalar o'z farzandlari o'rtasida o'rnak, ya'ni ko'zgu bo'lishlari uchun qator chora-tadbirlarni

amalga oshirishlari zarur. Farzandlarni yoshiga mos holda qator tarbiyaviy ishlar olib borishlari darkor.

- Ota-onalar farzandlari oldida oilada ibrat, namuna ko'rsatishlari uchun ularning ruhiy dunyosiga kirib borishlari ayni muddaodir.

- Komil insonni tarbiyalashda har bir ota-ona qimmat vaqtlarini o'z norasidalaridan hech ayamasliklari kerak.

- Oila davrasida ota-onalarning kuzatuvchanligi, ziyrakligi, sezgirligi, fahmliligi, hozirjavobliligi, samimiyligi muhim ahamiyat kasb etadi.

- Oilada ota-onalarning o'z farzandlariga va oilaning boshqa a'zolariga

(buva, buvi, kelin va boshqalar)ga mehribonligi ijobiy muhitni yaratishdagi eng muhim vazifalardan biridir. Bola tarbiyasida oilaning o'rni haqida mutafakkirlarimiz ham fikr bildirganlar. Rizouddin ibn faxriddinning "Oila" nomli risolasida bola tarbiyasi yomon niyat va qopollik bilan emas, balki sabr-toqat, matonat, mehribonlik, chidamlilik, Shafqat-u sezgirlilik bilan bo'lishi kerak. Zarar bilan foydani ayira olmagan yosh go'dakni nazoratsiz tutish ulug' xatolikdir. Balki, uni qattqlik bilan yumshoqlik o'rtasida adolat bilan tarbiya qilmoq kerakligi haqida fikrlar bildirganlar. Ma'lumki, bola 2-3 yoshidan boshlab, o'z ehtiyojlari, fikr va talablarini birmuncha aniq ifoda etadigan bo'lib qoladi. U ko'ziga koringan, aqli yetgan narsalarni so'ray va ularni sinchkovlik bilan tekshira boshlaydi. Ota-onalar milliy fazilatlarimizga muhabbat bilan qarash, razolatlardan nafrat qilish yo'llarini bolalarga o'rgatadilar. Buyuk mutafakkirimiz Abu Ali ibn Sinoning fikricha oilada bola yoshligidan boshlab faqat yaxshi odatlarga o'rgatilishi kerak. Bu esa unda mustahkam xarakter shakllanishiga zamin yaratadi. Ibn Sino yosh bolalarni yaxshi axloqli jismoniy sog'lom qilib yetishtirishda ko'pgina foydali usullarni ko'rsatib beradi. U tarbiya jarayonida shaxsiy namuna bo'lish usuli g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligi qayta-qayta uqtirib o'tgan. Maktabgacha ta'lim muassasining ota-onalar bilan hamkorlik masalasiga keladigan bo'lsak: maktabgacha ta'lim muassasining ota-onalar bilan ishlashining jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo'shib olib borish, keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Maktabgacha talim muassasining oila hamkorligidagi ish shakllari:

- tarbiyachi bolaning oilasiga borishi kamida yiliga 2 marta

- umumiy majlislar yiliga 2marta

- ota-onalar bilan shaxsiy suxbatlar: ertalabki qabulda, kechki kuzatish paytida

- ochiq eshiklar kuni yiliga 1-2 marta

- guruhiy majlislar yil choragida 1 marta.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorligi maktabgacha ta'lim sifatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik bolalarning ta'lim olishi, farovonligi va rivojlanishida muhim ahamiyat

kasb etadi. MTT ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan o‘zaro munosabatlarning turli shakllarini amalga oshirishi mumkin:

- bolalar rivojlanishining dolzarb masalalari bo‘yicha ota-onalarning malakalarini rivojlantirish

va takomillashtirish (seminar, ota-onalar klubi, trening, maslahat, konferentsiya, davra suhbatlari,

pedagogik mehmonxonalar va boshqalar);

- muntazam ravishda muloqot (kommunikatsiya)ni ta'minlash (ma'lumotlarning maxfiylikini

ta'minlagan holda pedagoglarning ota-onalar bilan online va offline uchrashuv va yig'ilishlarni

o'tkazishi, elektron xabarlar almashishi, bolaning rivojlanishi haqida ma'lumot berishi va

boshqalar);

- ota-onalarni guruh va/yoki maktabgacha ta'lim tashkilotiga ko'ngillilik faoliyatiga jalb etish

(rivojlantiruvchi muhitni yaratishda ishtirok etish; xavfsiz muhitni ta'minlash; o'yinlar tashkil

etish; qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatish; ko'rgazmalarni bezash, mashg'ulot, bayram va

tadbirlarni tashkil etish va ularda birgalikda qatnashish);

- ota-onalarga uyda bolaning o'qishni davom ettirishida (tashkil etishda) ko'maklashish

(topshiriqlar haqida ma'lumot berish, resurslar bilan ta'minlash, bolaning rivojlanishi va ta'lim

ol ishini kuzatish, o'quv dasturi doirasida bolalar loyihalarida ishtirok etish va boshqalar);

Oila bilan shaxsan ishlashning eng keng tarqalgan usuli sifatida qo'llanadigan suhbat - bolalarni ertalab qabul qilish va kechqurun jo'natish vaqtida o'tkazilishi mumkin. Ular tarbiyachilar va ota-onalartsing bir-biri bilan yaqinroq tanishishlariga, bir-birlarini bolaning hayoti haqidagi ma'lumotlar bilan xabardor qilishlariga, uning muvaffaqiyatlari va kamchiliklari, hulqi va sog'lig'idagi o'zgarishlarni kuzatishga yordam beradi. Ota-onalar bilan kechki suhbatlar ham vaqt jihatidan cheklangan. Tarbiyachi ulardan ba'zilariga bolaning guruhda kuni qanday o'tgani, u nima bilan mashg'ul bo'lgani, o'zini qanday tutgani, nimaga e'tibor berish kerakligi haqida axborot beradi. Masalan, ota-onalarga ularning bolasi bugun navbatchilikni yaxshi bajargani, unga bayramga she'r yodlab kelish topshirilganligi va shu boisdan unga yordam berish kerakligi xaqida gapiradi. Ota-onalarga bolasi haqida ko'p shikoyat qilaverish ham yaxshi natija bermaydi. Chunki ularning aks ta'siri pedagogik jihatdan

asossiz bo'lishi mumkin. Ko'p shikoyat qilish tarbiyachining pedagogik o'jizligini anglatadi. Ota-onalar bilan kechki suhbatlar ham vaqt jihatidan cheklangan. Tarbiyachi ulardan ba'zilariga bolaning guruhda kuni qanday o'tgani, u nima bilan mashg'ul bo'lgani, o'zini qanday tutgani, nimaga e'tibor berish kerakligi haqida axborot beradi. Masalan, ota-onalarga ularning bolasi bugun navbatchilikni yaxshi bajargani, unga bayramga she'r yodlab kelish topshirilganligi va shu boisdan unga yordam berish kerakligi haqida gapiradi. Ota-onalarga bolasi haqida ko'p shikoyat qilaverish ham yaxshi natija bermaydi. Chunki ularning aks ta'siri pedagogik jihatdan asossiz bo'lishi mumkin. Ko'p shikoyat qilish tarbiyachining pedagogik o'jizligini anglatadi. Mudir, shifokor, logoped, musiqa rahbari ham ota-onalarning o'zlariga taalluqli masalalar bo'yicha maslahatlar berishadi. Ota-onalar jamoasi bilan ishlash guruhiiy va umumiy majlislar shaklida o'tkaziladi. Guruhiiy va umumiy majlislar ota-onalar o'z vazifalarini chuqurroq tushunishlariga va bolalar tarbiyasida rilaning ahamiyatini anglashlariga, pedagogik bilimlarni egallashlariga qaratiladi. Majlis vaqtida hammaning oldida ba'zi bolalar va ularning ota-onalari haqida salbiy fikr bildirish kerak emas; bunday gaplarni ota-ona bilan begona tinglovchilar ishtirokisiz do'stona shaklda olib borish o'rindir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Ilk qadam "Davlat o'quv dasturi .-Toshkent,2022.13-b.
2. F. Qodirova , SH.Tshpo'latova, M.Azamova. Maktabgacha pedogogika .- Toshkent.2019
3. <http://www.kompy.info/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-v7.html?page=86>
4. <https://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/download/1251/1738/1247>